


2020- yil yanvar - sentabr oylari uchun Samarqand viloyatida qurilish ishlari

Joriy yilning yanvar-sentabr oylarida Samarqand viloyatida jami 4235,1 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, 2019- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 106,4 % ni tashkil etdi.




2020-yil yanvar-sentabr oylarida qurilish ishlari hajmining tarkibi, ulushi % da



Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʻyicha shakllanadi.


Amalga oshirilgan qurilish ishlari mukchilik shakli, davlat va nodavlat boʻlgan korxona va tashkilotlar tarkibi boʻyicha bo`linadi.



Maʼlumot uchun: qurilish ishlari hajmi bu – oʻz kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy taʼmirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



2020– yil yanvar–sentabr oylarida mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari



Qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

2020- yil 1-oktabr holatiga ko'ra qurilish sohasida korxona va tashkilotlar soni 3,0 mingtani tashkil etib, o'tgan 2019- yilning mos davriga nisbatan 270 taga oshdi.

Qurilish sohasida korxona va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu bino va inshootlar qurishda qurilish ishlari hajmining o'tgan yilga nisbatan **164,0 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **74,0 %**) oshganligi hisobidandir.




Samarqand viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalarini soni (birlikda)

	Holatiga ko'ra:		O'tgan yilga nisbatan, % da
	01.10.2019- yil	01.10.2020- yil	
Samarqand viloyati	2755	3025	109,8
Samarqand sh.	997	1050	105,3
Kattaqo'rg'on sh.	81	104	128,4
tumanlar:			
Oqdaryo	117	138	117,9
Bulung'ur	56	69	123,2
Jomboy	100	115	115,0
Ishtixon	132	146	110,6
Kattaqo'rg'on	111	118	106,3
Qo'shrabot	68	67	98,5
Narpay	70	84	120,0
Payariq	209	241	115,3
Pastdarg'om	279	311	111,5
Paxtachi	56	63	112,5
Samarqand	115	131	113,9
Nurobod	47	43	91,5
Urgut	194	214	110,3
Toyloq	123	131	106,5



Samarqand viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalarining hududlar kesimida ulushi (% da) 01.10.2020- yil holatiga



Ma'lumot uchun: Viloyatda qurilish korxonalari soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan hududlar Samarqand sh. (34,7 %), Pastdarg'om (10,3 %) va Payariq (8,0 %) tumanlardir.

Joriy yilning yanvar-sentabr oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **529,2** mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2019- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **9,9** martaga ko'p bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2019- yilning mos davridagi ko'rsatkich darajasidan **11,2 %** punktga ko'paygan.




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi, % da



Ma'lumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Samarqand shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **48,6** % yoki 2019- yilning yanvar-sentabr oyiga nisbatan **6,1** marta ko'p), Pastdarg'om (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **23,7** %), Toyloq (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **15,8** %), Samarqand (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **6,4** % yoki 2019- yilning yanvar-sentabr oyiga nisbatan **7,1** marta ko'p), Paxtachi (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **3,9** %) Kattaqo'rg'on shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **1,1** %) va Oqdaryo (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **1,1** %) tumanlarga to'q'ri keldi.



Qurilish ishlari umumiy hajmida kichik korxona va mikrofirmalarning ulushi, % da



Kichik korxona va mikrofirmalar

- 2020- yil yanvar-sentabr
- 2019- yil yanvar-sentabr

Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2020- yil yanvar-sentabr oylarida qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan kamayganligi kuzatildi. Ular tomonidan jami qurilish ishlari hajmining **62,0** % bajarilib, 2019- yilning yanvar-sentabr oylari ko'rsatkichiga nisbatan **3,5** % punktga kamaygan.

Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2019- yilning mos davriga nisbatan **100,4** % ni tashkil etgan holda **2625,7** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.


*Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi **25,5** % ni tashkil etib, **1080,2** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2019- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **82,6** % ni tashkil etdi.*



Qurilish ishlari umumiy hajmida norasmiy sektoring ulushi

ulushi % da,

mlrd. so'm




Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **213,0** mlrd. so‘mlik qurilish ishlari bajarilgan bo‘lib, 2019- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **160,7 %** ni tashkil etdi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **4022,1** mlrd. so‘mlik qurilish ishlari bajarilib, o‘sish sur‘ati **104,5 %** ni tashkil etdi. Ularning viloyatdagi tutgan ulushi mos ravishda **5,0 %** va **95,0 %** ni tashkil etgan.



Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo‘lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, % da

2020- yil
yanvar-sentabr



Davlat mulki



Nodavlat mulk

2020- yil
yanvar-sentabr

Samarqand viloyatida qurilish ishlari



Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi

2020- yil yanvar-sentabr

67,9 %

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurish bo'yicha bajarilgan. Jami qurilish ishlarining **67,9 %** yoki **2875,9 mlrd. so'mni** tashkil etgan.

17,3 %

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **497,1 mlrd. so'mlik** ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **17,3 %** ni tashkil etdi.

47,0%

Kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **1352,4 mlrd. so'm** yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **47,0 %** ni tashkil etdi.

35,7%

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasiga **1026,4 mlrd. so'm** yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **35,7 %** ni tashkil etdi.



**Hududlar kesimida qurilish ishlari
2020- yil yanvar-sentabr oylarida**

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm)	O'sish sur'ati, % da	Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya (mlrd. so'm)
Samarqand viloyati	4235,1	106,4	2875,9
Samarqand sh.	1442,0	107,5	1101,4
Kattaqo'rg'on sh. tumanlar:	81,5	111,2	60,4
Oqdaryo	343,4	103,8	238,7
Bulung'ur	95,4	100,5	66,1
Jomboy	205,7	103,3	143,8
Ishtixon	204,9	103,0	143,8
Kattaqo'rg'on	145,5	113,1	97,8
Qo'shrabot	105,4	100,1	74,8
Narpay	136,8	100,5	97,8
Payariq	266,7	102,2	204,2
Pastdarg'om	318,8	113,9	109,3
Paxtachi	133,8	112,8	106,4
Samarqand	194,2	100,6	66,1
Nurobod	72,7	101,0	17,3
Urgut	235,8	102,5	224,3
Toyloq	252,5	116,1	123,7

*Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda



Samarqand viloyatida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari, % da

2019- yil yanvar-sentabr

7,3




Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari

13,7



Fuqarolik obyektlarini
qurish

79,0



Bino va inshootlarni
qurish

7,2



Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari

18,8



Fuqarolik obyektlarini
qurish

74,0



Bino va inshootlarni
qurish

Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.




Bino va inshootlar qurilishi

ulushi % da

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **7,4 %** ni tashkil etib, 2019- yilning yanvar-sentabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **6,7 %** punktga ko'paydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2019- yilning yanvar-sentabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **5,3 %** punktga ko'payib, **58,2 %** ni tashkil etdi.

Norasmiy sektoring ulushi esa 2019- yilning yanvar-sentabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **12,0 %** punktga kamayib, **34,4%** ni tashkil etdi.



2020- yil
yanvar-sentabr

Samarqand viloyatida qurilish ishlari




Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

ulushi % da

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **36,6 %** ni tashkil etdi va 2019- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **27,3 %** punktga ko`paydi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **63,0 %** (**25,4 %** punktga kamayish), hamda norasmiy sektorning ulushi **0,4 %** (**1,9 %** punktga kamayish)ni tashkil etdi.



2020- yil
yanvar-sentabr


Samarqand viloyatida qurilish ishlari



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

ulushi % da

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **1,8 %** ni tashkil etdi. Qolgan **98,2 %** ulush esa kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to`g`ri keldi.



2020- yil
yanvar-sentabr

Samarqand viloyatida qurilish ishlari



Hududlar kesimida qurilish ishlari 2020- yil yanvar-sentabr oylarida

Eng yuqori hajm

(mlrd. so'm)

Samarqand sh.
1442,0

1

2

Oqdaryo
343,4

Pastdarg'om
318,8

3



Eng kichik hajm

(mlrd. so'm)

Nurobod
72,7

1

2

Kattaqo'rg'on sh.
81,5

Bulung'ur
95,4

3



SAMARQAND VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

**Samarqand viloyati
Statistika boshqarmasi**

**Investitsiya va qurilish statistikasi
bo'limi**

Aloqa telefoni: (66) 2304532

**2020- yil
yanvar-sentabr**

Samarqand viloyatida qurilish ishlari